

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**MUMINOV RAVSHAN BAXRAMOVICH**

**EKSPLUATATSION XOSSALARI YAXSHILANGAN POLIPROPILEN  
FIBRASI BILAN DISPERS-ARMATURALANGAN BETON**

**05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari**

**TEXNIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Muminov Ravshan Bahramovich**

Eksploatatsion xossalari yaxshilangan polipropilen fibrasi bilan dispers-  
armaturalangan beton..... 3

**Муминов Равшан Бахрамович**

Бетон дисперсно-армированный полипропиленовой фиброй с  
улучшенными эксплуатационными свойствами..... 23

**Muminov Ravshan Bakhramovich**

Dispersion-reinforced concrete with polypropylene fiber with improved  
performance properties..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 47

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**MUMINOV RAVSHAN BAXRAMOVICH**

**EKSPLUATATSION XOSSALARI YAXSHILANGAN POLIPROPILEN  
FIBRASI BILAN DISPERS-ARMATURALANGAN BETON**

**05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari**

**TEXNIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5486 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Maxamataliev Irkin Muminovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Hasanov Baxridin Baratovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Shakirov Tuygunjon Turgunovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “20” dekabr soat 10<sup>00</sup> daqi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz), [tashiit@exat.uz](mailto:tashiit@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “09” dekabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil “09”dekabrdagi 26-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.I. Adilxodjayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**U.Z. Shermuxamedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d., professor

**A.A. Ishanxodjayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qurilish tarmog‘i rivojlanishining zamonaviy bosqichida an‘anaviy betonlardan o‘zining ekspluatatsion xossalari bilan keskin farq qiluvchi ko‘p komponentli yuqori sifatli yangi avlod betonlari asosida ishlab chiqiluvchi konstruksiyalardan foydalanish keng ko‘lamda taraqqiy etmoqda. Hozirgi kunda AQSh, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya va Yevropaning boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarida yangi avlod betonlari insoniyat taraqqiyotining ustivorligini ta‘minlovchi eng asosiy material sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu borada tarkibiga kimyoviy va mineral qo‘shimchalar hamda dispers-tolasimon mikroto‘ldirgichlar kompleksini kiritishga asoslangan ko‘p komponentli yuqori sifatli yangi avlod betonlarini olishning tarkiblari va texnologiyasini ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalariga aylanmoqda.

Jahonda oxirgi yillarda yuqori samarali yangi avlod betonlarining, xususan diskret tolalar bilan dispers-armaturalangan betonlar - fibrobetonlarning tarkiblari va texnologiyalarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ustida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda yuqori ekspluatatsion ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘ta samarali fibrobetonlarni olish uchun ularning tarkibida yuqori markali sementlar (M500 va yuqoriroq bo‘lgan), yuqori sifatli to‘ldiruvchilar, o‘ta samarali super va giperplastifikatorlar, hamda qimmatbaho dispers-tolasimon mikroto‘ldirgichlarni ishlatilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda mahalliy xom ashyo va materiallar asosidagi sementning oddiy markalari, to‘ldiruvchilar, kimyoviy va mineral qo‘shimchalar, dispers-tolasimon mikroto‘ldirgichlar asosidagi fibrobetonlarni olishning tarkiblari va texnologiyasini ishlab chiqish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sohada mahalliy xom ashyo va materiallar, hamda sanoat chiqindilari asosida qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ularning turlarini ko‘paytirish, shuningdek, resurs hamda energiya tejamkor texnologiyalarini qurilish amaliyotiga joriy qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi”da “Qurilish materiallarini ishlab chiqarishning hajmini ikki barobarga ..., resurslardan foydalanishning samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlaridagi energiya tejamkorlikni ta‘minlash”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 23 maydagi PF-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajarishga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II – “Energetika, energiya va resurslarni tejash”, XIV – “Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Yangi avlod betonlari, shular jumlasidan turli fibrotolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonlar texnologiyasining nazariy asoslarini yaratish, ularni ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli kompleks ilmiy tadqiqotlarni olib borish bilan shug‘ullanuvchi dunyoning yirik olimlari: Yu.M. Bajenov, V.V. Babkov, O.Ya. Berg, P.G. Komoxov, I.A. Ribev, B.V. Gusev, N.B. Urev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, G.P. Berdichevskiy, V.M. Bondarenko, I.V. Volkov, A.A. Gvozdev, Yu.V. Zaysev, L.G. Kurbatov, B.A. Krilov, I.A. Lobanov, K.V. Mixaylov, R.L. Mailyan, L.R. Mailyan, R.A. Malinina, Yu.V. Puxarenko, F.N. Rabinovich, B.G. Skramtaev, K.V. Talantova, T.K. Xaydukov, M.M. Xolmyanskiy, V.P. Xarchevnikov, F.P. Yankelevich, Ye.M. Chernyshev, Virovoy, A.G. Komar, V.T. Yerofeyev, V.I. Kalashnikov, V.I. Kondrashenko, T.I. Petrova, S.V. Shestoporov, A.E. Sheykin, V.B. Ratinov, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, V.M. Kolbasov, S.M. Royak, V.V. Timashev, E. By, G.S. Xolister, S.T. Mileyko, Dj. Kuper, R. Fere, G. Hintze, F. Loher, T. Thorvaldson, F.J. Hogan, L.U. Spellman, A. Walter, H. Uchikawa, Sh. Hanehara, F. Lallard, T.S. Do, A. Durecovic, S. Sarcar, I. Older, V. Yogendran, P. Aitchin va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasida turli yillarda kompleks modifikatsiyalangan ko‘p komponentli yuqori sifatli yangi avlod betonlari, xususan turli xildagi tolalar bilan dispers armaturalangan betonlarni ishlab chiqish va ulardan olinadigan beton va temirbeton konstruksiyalarining texnologiyasini takomillashtirish qaratilgan tadqiqotlar bilan A.I. Odilxo‘jayev, E.U. Qosimov, M.K. Taxirov, N.A. Samigov, A.A. To‘laganov, B.B. Xasanov, K.S. Umarov, X.X. Kamilov, N.A. Abbasxonov, X.N. Nuritdinov, A.M. Eminov, U.A. Gaziyev, M.T. Turapov, B.T. Sobirov, S.A. Xodjayev, I.E. Qosimov, I.M. Maxamataliev, V.M. Soy, S.S. Shaumrov, A.T. Ilyasov kabi yetuk olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda turli xildagi tolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonlarning tarkibida mahalliy xom ashyo resurslari va sanoat chiqindilaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Biroq fibrobetonlar texnologiyasini tadqiqot qilishga bag‘ishlangan adabiy manba’lar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sintetik tolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonlar texnologiyasini takomillashtirish va xossalarini o‘rganish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy ishlanmalar, hozirgi kunda asosan yuqori modulli fibrotolalar, xususan po‘lat va shisha tolalar asosida olinuvchi dispers armaturalangan fibrobetonning xossalarini o‘rganish va tarkibini tanlash hamda ularning asosida ishlab chiqarilgan konstruksiya va buyumlarni hisoblash va loyihalash masalalari bo‘yicha bajarilgan fundamental va eksperimental tadqiqotlar natijalariga asoslanar ekan. Shu tufayli polipropilenli fibrobetonning struktura hosil qilishi qonuniyatlari va tarkibiy

komponentlarining o‘zaro ta’sir qilishi mexanizmlarini aniqlash, optimal tarkibini tanlash va loyihalash uslubini ishlab chiqish, uni olish texnologiyasini takomillashtirish masalalari hanuzgacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan o‘zaro bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq BV-F4-04 -son “Kompozitsion materiallarning polistrukturali nazariyasi asosida ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlar tarkibini optimallashtirish va xossalari bashorat qilish” (2018-2020 y.y.) mavzusidagi ilmiy-texnik loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ekspluatatsion xossalari yaxshilangan poliprolen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan betonlarning tarkiblari va olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turli maqsadlardagi ob’ektlar qurilishida polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan betonlarning qo‘llanilish tajribasini o‘rganish va tahlil qilish hamda ularning ekspluatatsion xossalari yanada yaxshilashning yo‘llarini belgilash;

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan betonlarning struktura hosil qilishining o‘ziga xos tomonlarini va mineral mikroto‘ldirgichlar, kimyoviy qo‘shimchalar va polipropilen fibrotolasining kompozitning texnologik, fizik-mexanikaviy va ekspluatatsion xossalariga ta’siri qonuniyatlarini takomillashtirish;

ekspluatatsion xossalarining yaxshilanganligi bilan tavsiflanuvchi polipropilen fibrotolali moldifikatsiyalangan mayda donador va oddiy betonlarning tarkiblari bo‘yicha uslubni takomillashtirish;

ekspluatatsion xossalarining yaxshilanganligi bilan tavsiflanuvchi polipropilen fibrotolali moldifikatsiyalangan mayda donador betonni yaratish bo‘yicha texnologik reglamentni ishlab chiqish;

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan betonlardan amalda foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash va ularni qo‘llashning eng samarali sohalarini belgilab berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador va oddiy betonlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador va oddiy betonlarning tarkiblari, xossalari va ishlab chiqarish texnologiyasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda fibrobetonlarning sifat ko‘rsatkichlarini zamonaviy asbob-uskunalar yordamida aniqlashning kabi standartlashtirilgan usullari, fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish usuli hamda eksperimental tadqiqotlar na tijalarini tahlil qilish va qayta ishlashning statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan mayda donador va yirik to‘ldiruvchili og‘ir fibrobetonlar strukturalarining qotish jarayoni sur‘atlari va fizik-mexanikaviy va ekspluatatsion xossalariga turli modifikatorlar va dispers-tolasimon mikroto‘ldirgich parametrlarining korrelyatsion ta’sir ko‘rsatishi asoslangan;

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning birlamchi va ikkilamchi gidratatsiya sodir bo'lishi bilan kechuvchi struktura hosil qilishi va uning to'liq shakllanishi qonuniyatlari aniqlangan;

siqilishga mustahkamlik chegarasi ko'rsatkichi bo'yicha polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning tarkibi ishlab chiqilgan;

betonni polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalanishi uning hajmi bo'yicha bir tekis taqsimlanishi hisobiga sementli matritsasini mikrodarajada strukturalashtirishi va ekspluatatsion xossalarining yaxshilanishiga olib keluvchi yopiq g'ovaklari miqdorining ortishiga olib kelishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ekspluatatsion xossalarining ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning optimallashtirilgan tarkibi ishlab chiqilgan;

ekspluatatsion xossalarining yaxshilanganligi bilan tavsiflanuvchi polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobeton olishning texnologiyasi takomillashtirilgan;

MChJ «NO'KIS TEMIR BETON BUYUMLARI ZAVODI» korxonasiida qo'llash uchun "Polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobeton ishlab chiqarishning texnologik reglamenti" ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan yangi tarkibdagi fibrobeton dan gidrotexnika va abtomobil yo'llari qurilishida samarali konstruksiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash mumkinligi ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishining ilmiy xulosalari va tavsiyalari zamonaviy tadqiqot usullari va o'lchash asbob-uskunalaridan foydalanib bajarilgan katta hajmdagi eksperimental tadqiqotlar natijalarini qayta ishlab chiqilganligi, eksperimental natijalarning nazariy qoidalar va boshqa tadqiqotchilar ma'lumotlari bilan muvofiq kelishi, matematik modellashtirishning zamonaviy usulidan foydalanib bajarilganligi, olingan natijalarning qurilish amaliyoti sharoilarida muvaffaqiyatli aprobatsiyadan o'tganligi bilan ta'minlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan mayda donador va oddiy fibrobetonlar strukturasining shakllanishi, qotish jarayoni va fizik-mexanikaviy va ekspluatatsion xossalariga turli modifikatorlar va dispers-tolasimon mikroto'ldirgich parametrlarining ta'siri qonuniyatlarining aniqlanganligi, polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning strukturasi shakllanishining o'ziga xos jixatlari ko'rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekspluatatsion xossalarining ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning optimallashtirilgan tarkibi ishlab chiqilganligi, ekspluatatsion xossalari yaxshilangan polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobeton olish

texnologiyasining takomillashtirilganligi, qurilish industriyasi korxonalari uchun mo'ljallangan "Polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobeton ishlab chiqarishning texnologik reglamenti" ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilish.** Eksploatatsion xossalari yaxshilangan polipropilen fibrasi bilan dispers armaturalangan betonning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari asosida:

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador fibrobetonning tarkibi va texnologiyasi MChJ «No'kis temir beton buyumlari zavodi» korxonasi bazasida ishlab chiqarishga joriy qilingan («O'z sanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2024 yil 18 noyabrdagi 04/15-3511-son ma'lumotnomasi). Bunda xajmi 5000 m<sup>2</sup> ni tashkil etuvchi trotuar plitkasining sinov partiyasi ishlab chiqarilgan. Natijada, trotuar plitkasini ishlab chiqarishdan olingan iqtisodiy samara – 22.11 mln so'mni tashkil qilgan;

polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan yirik to'ldiruvchili og'ir fibrobetonning tarkibi va texnologiyasi MChJ «No'kis temir beton buyumlari zavodi» korxonasi bazasida joriy qilingan («O'z sanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2024 yil 18 noyabrdagi 04/15-3511-son ma'lumotnomasi). Bunda xajmi 4000 dona ni tashkil etuvchi bordyur toshlarining sinov partiyasi ishlab chiqarilgan. Natijada, bordyur toshlarini ishlab chiqarishdan olingan iqtisodiy samara – 15,904 mln so'mni tashkil qilgan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusiga doir tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 1 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 10 tasi maqolalar, jumladan 1 ta xorijiy va 1 ta Osiyo jurnallarda, 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan kompyuter dasturlari uchun 2 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, beshta bob, xulosa, 170 nomli foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Fibrotolalar bilan dispers – armaturalangan betonlardan foydalanishning zamonaviy xolati**" deb nomlangan birinchi bobida

dissertatsiyaning mavzuga oid chop etilgan ilmiy ishlarning taxlil qilinishi asosida yozilgan adabiy sharxi keltirilgan. Unda qurilishda fibrotolalar bilan dispers-armaturalangan betonlarning qo'llanilishi tajribasi, betonlarni dispers armaturalash uchun ishlatiladigan turli fibrotolalardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari, betonlarni dispers armaturalash uchun polimerli fibrotolalardan foydalanishning mavjud bo'lgan tajribasi va kelajagi tahlil qilingan.

Adabiy manba'larda keltirilgan ma'lumotlarning tahlilidan shular aniqlandiki, qurilish soxasida fibrobetonlardan foydalanishning butunjaxon amaliyotida ulardan olinuvchi konstruksiyalar va buyumlarni ekspluatatsion sharoitlarni e'tiborga olagn holda qo'llash sezilarli darajada salmoqli texnik-iqtisodiy va ijtimoiy samara olinishiga imkoniyat berar ekan. Biroq qurilish tarmog'i tomonidan fibrotolalar bilan dispers-armaturalangan betonlarning iste'mol qilinishi xajmlarining sezilarli darajda o'sishiga qaramay ulardan foydalanishning ko'lamlari hanuzgacha pastligicha qolmoqda va tarmoqning o'sib boruvchi zamonaviy talablariga yetarlicha javob bera olmayapti. Bunda fibrotolalar bilan dispers-armaturalangan betonlarning qurilish amaliyotida yanada kengroq qo'llanilishiga u yoki bu xildagi fibrotolalarning, xususan polipropilen fibrotolalarining sementli kompozitlar tarkibida qo'llanilishiga oid tasdiqlangan me'yoriy va texnik bazaning, hamda polipropilenfibrobetonli qurilish konstruksiyalarini hisoblash bo'yicha yo'riqnomasifatidagi me'yoriy-texnik xujjatlarning mavjud emasligi ham jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Yuqoridagilarni e'tiborga olib polipropilenli fibrotola asosidagi fibrobetonlardan qurilishda foydalanish bo'yicha me'yoriy-texnik bazani yaratish, hamda turli betonlarning qurilish-texnik tavsiflariga polipropilenli fibrotolaning ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq va o'ta dolzarb masala hisoblanadi, chunki me'yoriy-texnik adabiyotlarda ushbu maslaga oid ma'lumotlar mavjud emas va bo'lishiga ham yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Ushbu qo'yilgan dolzarb masalalarning dissertatsion tadqiqotlar doirasida yechish va amalga oshirish uchun quyidagi **ishchi gipotezasi** shakllantirildi. Yaxshilangan ekspluatatsion xossalarlarga ega bo'lgan polipropilen fibrotolasi bilan dispers-armaturalangan yuqori samarali fibrobetonlarni olish kompozitni kompleks modifikatsiyalash uchun qo'llaniluvchi va ularni birgalikda qo'llanilishida sinergetik samarani beruvchi kimyoviy qo'shimchalar, mineral va dispers-tolali mikroto'ldirgichlarni sifat va miqdor jixatdan ilmiy asoslangan holda tanlanadi.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich materiallar va tadqiqotlar usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlarda ishlatilgan hom ashyo va materiallarning fizikaviy, fizik-mexanik xususiyatlari va kimyoviy tarkiblari keltirilgan hamda polipropilen fibrotolasi bilan dispers-armaturalangan betonlarning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini tadqiqot qilish uslublari batafsil yoritib berilgan.

Ekspeimental tadqiqotlarni o'tkazishda, xususan modifikatsiyalangan sement toshi va polipropilenofibrobeton namunalarini tayyorlashda quydagi hom ashyo va materiallar ishlatildi: bog'lovchi sifatida Oxangaron sement zavodining SEM0 32,5 N va SEM0 42,5 N markali portlandsementi (GOST 31108-2020), mayda to'ldiruvchi sifatida yiriklik moduli  $M_{kr}=1,81$  va o'rtacha zichligi  $\sim 2000 \text{ kg/m}^3$  ga teng bo'lgan Qo'yliq konining kvars qumi (GOST 26633-2012), mineral


mikroto'ldirgich sifatida GOST 25818-83 talablariga javob beruvchi nisbiy sirtining yuzasi  $S_{ud}=4000 \text{ sm}^2/\text{g}$  gacha maydalangan va kimyoviy tarkibi, mas. %:  $\text{SiO}_2$  -50,8;  $\text{Al}_2\text{O}_3$  - 26,4;  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  - 2,8;  $\text{Na}_2\text{O}$  -10,3;  $\text{MgO}$  -1,5;  $\text{CaO}$  - 1,8;  $\text{H}_2\text{O}^+$  - 6,4; kuydirilganda yo'qotishi- 3,2 bo'lgan Beltau konining (Navoiy viloyati) seolitli tog' jinsi, kimyoviy qo'shimcha sifatida «BASF» (Germaniya) kompaniyasining Master Glenium ACE 430 polikarboksilatli superplastifikatori, dispers-tolali mikroto'ldirgich sifatida Sartech Yapı Malzemeleri San. ve Tic. Ltd. Şti. (Turkiya) kompaniyasining kesimi kvadrat shaklidagi, kesimi tomonining o'lchami 20 mkm va uzunligi 12 mm bo'lgan FOX POLFIBER M12 markali polipropilenli fibrotolasi ishlatildi.

Eksperimental tadqiqotlarda qurilish materiallarini sinashning standartlashtirilgan usullari bilan bir qatorda fizik-kimyoviy taxlil qilishning zamonaviy usullaridan, hamda yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan nostandart usulardan ham foydalanildi. Fibrobetondan tayyorlangan namunalar siqilishga va egilishdagi cho'zilishga 28 sutkalik muddatda normal sharoitlarda qotirilganidan so'ng GOST 10180-2012 ga muvofiq sinovdan o'tkazildi. Fibrobetonli namunalarning muzlashga chidamliligi GOST 10060.1-95 da ko'zda tutilgan standartlashtirilgan usul bo'yicha aniqlandi. Seolitli tog' jinsini maydalash ShLM-100 rusumli laboratoriyaga oid sharli tegirmonda samalga oshirildi. Mineral mikroto'ldirgichning dispersligi nisbiy sirtining yuzasi bo'yicha baholandi va ushbu ko'rsatkich PSX-11A asbobida Kozeni-Karmanning havo o'tkazuvchanlik uslubiga ko'ra aniqlandi. Sement toshi namunalarning siqilishga mustaxkamlik chegarasi MS-100 gidravlik pressida yuklash tezligi 0,1 MPa/s ga teng bo'lganida aniqlandi. Sement qarishmasidan tayyorlangan o'lchami 4x4x16sm li to'sinchalarning egilishga mustahkamlik chegarasi MII-100 sinov mashinasida GOST 310.4-81 bo'yicha aniqlandi. Sof va kimyoviy hamda mineral qo'shimchalarning kompleksi bilan modifikatsiyalangan sement toshining g'ovakligi strukturasini o'rganishda simobli porometriya uslubi qo'llanildi va bunda Thermo Scientific firmasining Pascal 240 EVO rusumli porozimetridan foydalanildi. Modifikatsiyalangan va to'ldirilgan sement toshining strukturasini tadqiqot qilishda rentgen-fazali va elektron-mikroskopiya tahlillaridan foydalanildi va bunda ARL Xtra difratometri hamda FEI Quanta 200 SEM rastrli mikroskopi qo'llanildi.

Dissertatsiyaning **“Polipropilen fibrotolali modifikatsiyalangan mayda donador betonlarning tarkiblarini ishlab chiqish va xossalarini tadqiqot qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida seolitli tog' jinsidan olingan mineral mikroto'ldirgich va Master Glenium ACE 430 superplastifikatorining mayda donador betonlarning xossalariga ta'sirini, xamda polipropilenli fibrotola bilan dispers-armaturalangan mayda donador betonning mikrostrukturasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Bundan tashqari polipropilen fibrotolali modifikatsiyalangan mayda donador betonning tarkibini tanlash va xossalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari, xamda ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan mayda donador beton qarishmalarida polipropilenli fibrotolani qo'llash texnologiyasi keltirilgan.


Modifikatsiyalovchi qo‘shimchalar: maydalangan seolitli tog‘ jinsi (MSTJ) va Master Glenium ACE 430 superplastifikatorining mayda donador betonlarning asosiy xossalriga ta‘sirini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar ularning birgalikda kiritilishi (QBK) holida tarkibi S:Q=1:4 bo‘lgan teng harakatchan va suvning miqdori doimiy bo‘lgan mayda donador beton qarishmalarida amalga oshirildi. Grafik bog‘lanishlar ko‘rinishidagi eksperimental tadqiqotlarning natijalari 1-rasmda keltirilgan.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari MSTJ qo‘shimchasining 0,8% SP bilan QBK holidagi optimal miqdori soxasini aniqlashga imkoniyat berdi. Olingan natijalarga ko‘ra ushbu soxa sement massasiga nisbatan olganda 10-20% ni tashkil etadi, chunki MSTJni ushbu miqdorlarda tarkibga kiritganda me‘yoriy sharoitlarda 28 sutka davomida qotirilgan mayda donador betonning siqilishga va egilishga bo‘lgan mustahkamligi mos ravishda 1,7 va 1,2 barobarga ortadi.




**1-rasm. MSTJ ning QBK xolidagi mayda donador betonning xarakatchanligi (a), o‘rtacha zichligi (b) va mustahkamligiga (v) ta‘siri**

Polipropilenli fibrotolaning modifikatsiyalangan mayda donador betonning siqilishga va egilishdagi cho‘zilishga mustahkamligiga ta‘sirini taxlil qilish uchun uzunligi 6, 12 va 18 mm bo‘lgan fibrotola bilan dispers-armaturalangan Q/S=3 va S/S=0,45 tarkibli kompozitlarning ushbu ko‘rsatkichlari aniqlandi. O‘tkazilgan sinovlning natijalari 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Mayda donador betonning siqilishga (a) va egilishdagi cho‘zilishga (b) mustaxkamligining polipropilenli fibra miqdoriga nisbatan o‘zgarishi grafiklari, fibraning uzunligi 6, 12 va 18 mm bo‘lganida

“Sement-MSTJ” sistemasidagi fazalar hosil bo‘lishi jarayonlarini 20 -1100 °S harorat intervalida o‘rganish va taqqoslash  $S/S=0,25$  bo‘lgan sof sementli bog‘lovchi va  $S/S=0,165$  bo‘lgan modifikatsiyalangan (sement + MSP + superplastifikator) sementli bog‘lovchining gidratlangan qorishmalarida amalga oshirildi. Bunda qo‘shimchalar tarkibga quyidagi miqdorda kiritildi: MSTJ = 18 % va SP = 0,8 %, ikkalasi xam ko‘p komponentli sementli bog‘lovchining massasiga nisbatan. Tayyorlangan namunalar 28 sutkalik muddatda sinovdan o‘tkazildi. Rentgen-fazali tahlilning difraktogrammalar ko‘rinishidagi natijalari 3- va 4- rasmlarda keltirilgan.




3-rasm. Oddiy bog‘lovchidan (S) olingan sement toshining difraktogrammasi va mineralogik tarkibi



4-rasm. Kompozitsion bog‘lovchidan (S+MSTJ+SP) olingan sement toshining difraktogrammasi va mineralogik tarkibi

Tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha sementli sistemaga MSTJ va SP ning kompleks ta’sir ko‘rstishi natijasida sistemaning struktura xosil qilishining erta bosqichida qorishma yuqori qovushqoqlikka va bog‘liqlikka ega bo‘ladi hamda yorqin namoyon bo‘luvchi tiksotropik xususiyati bilan tavsiflanadi, kech bosqichida esa modifikatsiyalangan sement toshi sifat jixatdan o‘ziga xos kimyoviy tarkibga va strukturasi maxsus geometriyasi bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar kompleks modifikatsiyalangan mayda donador betonning yuqori mustaxkamlikka, past o‘tkazuvchanlikka va yuqori uzoqqa chidamlilikka erishishiga sababchi bo‘ladi.

Yangi tarkib uchun “sement toshi-fibrotola” kontakt zonasining shakllanishi va zichlashishining o‘ziga xos tomonlari ilgari ma’lum bo‘lgan Zotov A.N.tomonidan ishlab chiqilgan va patentlashtirilgan mikrokremnezomli tarkibga nisbatan ochib berildi va sxematik tarzda ifodalab berildi (5-rasm).



**5-rasm. Sement toshi va fibrotolaning kontakt zonasi**  
**1-polipropilenli fibrotola; 2 -kontakt zonasi; 3- sementli matritsa yangi xosilalar bilan; 4 -g‘ovakli qatlam; 5 –sementli matritsa,**  
**a – ilgari ma’lum mikrokremnezomli tarkib; b – MSTJ li yangi tarkib**

5-rasmda ko‘rsatib o‘tilganidek sementli matritsa bilan fibrotolaning kontakt zonasining chegarasida MSTJ dan foydalanilgan xolat uchun kontakt zonasi mustaxkamligining (adhezion mustaxkamlikning) ortishi bilan kuzatiluvchi mikrostrukturaning sezilarli darajada zichlashishi ro‘y beradi. Bunday ijobiy samara ko‘p jixatdan kompozit tarkibda foydalanilgan mikroto‘ldirgich – MSTJning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Polipropilenli fibrotola bilan dispers-armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador betonning yangi tarkibini ishlab chiqish uchun texnik adabiyotlar bo‘yicha patentga oid izlanish amalga oshirildi. Patent izlanishlari asosida ishlab chiqiluvchi tarkib uchun analoglar va prototip tarkib tanlab olindi va kompozitning ekspluatatsion xossalari ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatini beruvchi sifatga oid va miqdoriy o‘zgartirishlar kiritildi.

Fibrobeton qorishmasining ilgari ma’lum bo‘lgan (prototip bo‘yicha) va yangi (buyurtma bo‘yicha) tarkiblari 1-jadvalda keltirilgan.

Fibrobeton qarishmasining prototip va buyurtma bo'yicha tarkiblari

Fibrobeton qarishmasining tarkiblari	Qorishma komponentlarining nisbatlari, mass, %		
	1	2	3
Prototip bo'yicha			
Portlandsement	21,30	21,50	21,60
Qum	69,60	70,24	70,50
Mikrokremnezem MKU-85	1,86	1,80	1,88
Poliprpilen fibrasi OOO «FibraLyuks»	0,04	0,09	0,14
Superplastifikator Stachment 2061/151.2	0,19	0,39	0,59
Suv	7,01	5,98	5,29
Buyurtma bo'yicha			
	4	5	6
Portlandsement	21,30	21,50	21,60
Qum	69,60	70,24	70,50
Seolitli tog' jinsi	2,48	2,41	2,42
Polipropilen fibrasi FOX POLFIBER M12	0,04	0,09	0,14
Superplastifikator MasterGlenium ACE 430	0,19	0,39	0,59
Suv	6,39	5,37	4,75

Mayda donador betonning tarkibida modifikatsiyalovchi qo'shimchalar: maydalangan seolitli tog' jinsi, superplastifikatora MasterGlenium ACE 430 va polipropilenli fibra FOX POLFIBER M12 ning kompleks qo'llanilishi uning 28 sutkalik normal sharoitda qotirilgan xolatidagi siqilishga va cho'zilishga mustaxkamligi hamda muzlashga chidamliligi ko'rsatkichlariga ta'siri prototip tarkib bo'yicha tayyorlangan fibrobetonning aynan shu ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirma ma'lumotlari 2-jadvalda keltirilgan.


Fibrobetonlarning mustaxkamlikka oid va ekspluatatsion ko'rsatkichlari

Fibrobeton qarishma larining tarkiblari	Mustaxkamlik chegarasi, MPa		Muzlashga chidamlilik, siki
	siqilishga	egilishdagi cho'zilishga	
Prototip bo'yicha			
1	71,8	7,06	400
2	73,6	7,08	400
3	71,2	6,87	400
Buyurtma bo'yicha			
4	84,0	9,75	500
5	85,2	9,82	500
6	82,5	8,95	500

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning taxlili shulardan dalolat beradiki, ishlab chiqilgan yangi fibrobeton qarishmasining tarkibiga yuqorida keltirilgan modifikatsiyalovchi qo'shimchalarning kiritilishi undagi komponentlarning belgilab berilgan nisbatlarida 28 sutkalik normal sharoitda qotirilgan mayda donador fibrobetonning egilishdagi cho'zilishga mustaxkamligini prototip tarkibga nisbatan olganda 30-38% ga oshiradi. Muzlashga chidamlilik ko'rsatkichi esa prototip tarkibga nisbatan olganda 25% ga oshadi. Bizning fikrimizcha, fibrobeton qarishmasining yangi tarkibi bo'yicha olinuvchi kompozitning sifat ko'rsatkichlarining sezilarli darajada ortishiga fibrobeton qarishmasining suv talabchanligining keskin kamayishi hisobiga sementli matritsa strukturasi va

shu bilan birga sement matritsasi va fibrotola o'rtasidagi kontakt zonasi g'ovakligining kamayishi sababchi bo'ladi (6-rasm).

Bundan tashqari fibrobeton xossalarning yaxshilanishiga kompozitsion bog'lovchi struktura xosil qilishining dastlabki bosqichlaridagi kengayish samarasining sodir bo'lishi natijasida kontakt zonasining yanada zichlashishi, polipropilen tolasi kesimi geometrik shaklining doiraviydan kvadrat shakliga o'zgartirilishi natijasida kontakt zonasining umumiy yuzasining ortishi ham o'z xissasini qo'shadi.



**6-rasm. Fibrobeton sementli matritsasining integral g'ovakligi:**  
**1-nazorat tarkibi;**  
**2-SP bilan modifikatsiyalangan tarkib;**  
**3-kompleks modifikatsiyalangan tarkib (SP+MSTJ)**

Polipropilen fibrotolasi bilan dispers armaturalangan modifikatsiyalangan mayda donador betonning tarkibni optimallashtirish eksperimentlarni rejalashtirishning matematik usulidan foydalanib, xususan giperkubdagi ikkinchi darajali uch faktorli rejani amalga oshirish yo'li bilan bajarildi. Tegishli rejalashtirish matritsasi amalga oshirilib o'tkazilgan 20 ta tajriba bo'yicha olingan eksperimental natijalar statistik qayta ishlab chiqilganidan so'ng fibrobeton sementli matritsasining siqilishga mustaxkamligining quyidagi matematik modeli olindi:

$$R_{sj} = 16,68 + 4,03X_1 + 15,34X_2 + 14,015X_3 - 0,31X_1X_2 + 7,75X_1X_3 - 10,08X_2X_3 - 4,12X_1^2 - 4,86X_2^2 - 6,46X_3^2 ;$$

Kompleks modifikatsiyalangan sement toshining siqilishga mustaxkamligi modelining tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchi omillar miqdorining ko'rib chiqilayotgan intervalida sementli kompozit mustahkamligiga ta'sir qiluvchi eng ahamiyatli omil  $X_3$  omili, ya'ni polipropilen fibrotolasining miqdori ekan, ahamiyatligiga ko'ra ikkinchi omil esa  $X_2$  omili, ya'ni mineral mikroto'ldirgichning miqdori bo'lib chiqdi va nihoyat engi kam ahamiyatli bo'lgan omil  $X_1$  omili, ya'ni superplastifikator MasterGlenium ACE 430 ning miqdori bo'ldi. Shu bilan birga grafoanalitik usulda o'tkazilgan texnologik taxlil natijalariga ko'ra uchchala o'zgaruvchi omilning quyidagi optimallashtirilgan miqdorlari aniqlandi: Master Glenium ACE 430 superplastifikatorining miqdori – sement massasiga nisbatan 0,8 %, mineral mikroto'ldirgich- MSTJ miqdori – sement massasiga nisbatan 18 % va FOX POLFIBER M12 polipropilen fibrasining miqdori – sement massaiga nisbatan 0,4 %.

Yuqori sifatli fibrobeton qarishmalarini olishda ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish muxim ahamiyatga ega bo'lgan masala

hisoblanadi. Bunda polipropilen fibrotolarini betonning butun xajmi bo'yicha bir tekis taqsimlanishi uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi. Laboratoriya sharoitlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda hamda tajribaviy ishlab chiqarishga joriy qilish ishlarini o'tkazishda shular aniqlandiki, vibropresslanuvchi kabi buyumlarni ishlab chiqarishda ishlatiluvchi (P1 – J5) markali kam xarakatchan va qattiq beton qorishmalarini tayyorlashda polipropilen fibrotolasini mayda donador fibrobeton qorishmasini aralashtirishdan oldin boshqa quruq komponentlari bilan birgalikda kiritish maqsadga muvofiq, (P2 – P5) markali xarakatchan fibrobeton qorishmalarini tayyorlashda esa polipropilen fibrotolasini eng oxirgi navbatda, ya'ni tayyorlangan beton qorishmali betonqorishtirgichga kiritish maqsadga muvofiq, keyinchalik qo'shimcha aralashtirish sharti bilan.

